

KANTEX INVEST KORXONASIDA TAYYORLANGAN YIGIRILGAN IPLARIN QIYOSIY TAHLIL QILISH VA O'RGANISH

Kidirbaeva H. A., Dotsent Paluanov B.A.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20196741>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda yigirilgan ipni tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan olib borilgan ishlar tahlil qilingan. Iplarni o'rganish jarayonida eng ilg'or texnologiyalarning imkoniyati o'rganilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kanteks invest, yigirilgan ip, texnologiya, qoyish, o'rganish

Yuqori sifatli yigirilgan ip mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish, respublika to'qimachilik tarmog'i korxonalarining barqaror faoliyat yuritishini hamda to'qimachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirishni ta'minlash, shuningdek, ilmiy salohiyatni oshirish va tarmoq uchun malakali kadrlar tayyorlashda yirik to'qimachilik korxonalarini va zamonaviy laboratoriyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsad qilib olingan.

Sifatli va raqobatbardosh ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Kanteks invest korxonasida tayyorlangan yigirilgan ip sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilib qaraganimizda ancha yaxshi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholining siyosiy ongi, madaniyati yuksalib, ertangi buyuk kelajakka bo'lgan ishonch ortib bormoqda. Shu yillar mobaynida qilingan bir qator amaliy ishlar natijasida davlat tizimlari tubdan o'zgardi va xususiy mulkdorlar safi ko'paydi. Zamon talabiga mos xorijiy investorlar bilan qo'shimcha korxonalar tashkil etish, sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha qator loihalar amalga oshirilmoqda[1].

O'zbekiston Respublikasida asosiy to'qimachilik xomashyosi bo'lgan paxta tolasi ishlab chiqarish va uni chuqur qayta ishlash asosida keng assortimentdagi yuqori sifatli va resurstejamkor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'ngi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, mahsulotni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish borasida olib borilgan izchil islohotlar natijasida agrar sohada faoliyat yuritishning yangi tizimi — klaster usuli joriy etildi[2].

Qoraqoqston Respublikasi eksport salohiyatida hududning o'zida yetishtirilgan paxta tolasidan “ip kalava” mahsulotini ishlab chiqarish “politilen” eksportidan keying yetakchi o'rinda turadi. Bugungi kunda aynan ushbu mahsulotni sifatli ishlab chiqarib jahon bozoriga olib chiqayotgan hududagi onga yaqin korxonalar orasida Qanliko'l tumanidagi “Kanteks Invest” mas'uliyati cheklangan jamiati ham o'zining salmoqli o'rni bor.

Korxonaga ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirish maqsadida Italiya va Germaniyadan qo'shimcha yangi texnologiyalar olib kelinib to'liq quvvatda ishga tushirilgan. Hindstondan kelgan malakali texnologlar ushbu murakkab asbob-uskunalarni o'rnatish bilan birga, tuman yoshlariga ularni qanday boshqarish va foydalanish kerakligini o'rgatib kelmoqda.

Yengil sanoat sohasida Xindston bugungi kunda jahonda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi, deydi xorijlik mutaxassis Navin Kumar Singx. – Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozim, yoshlarning ishga bo'lgan munosabati va qiziqishi yuqori. Shuni uchun ham yuqori o'quv muassasalarida yakka ish faoliyati va amaliy mashg'ulotlarini yuritish uchun laboratoriyalar amaliy mashg'ulot xonalari yaratilgan[3].

Bugungi kunda 600 ishchi o'rniga ega bo'lgan Kanteks invest korxonasi ishlab chiqarilgan mahsulotini, ichki bozordan tashqari, Rossiya, Turkiya, Ukraina va Belarus davlatlariga eksport qilmoqda. Jumladan, o'tgan yili 4 million 46 ming AQSH dollari qiymatidagi 1 ming 540,3 tonna mahsulot bir qator xorijiy davlatlarda eksport qilingan bo'lsa, joriy yil boshidan 210 ming AQSH dollari qiymatidagi 90 tonna ip kalava mahsulotlari eksportini amalga oshirdi[1].

Kanteks Invest korxonalarida yigirilayotgan iplar tekstlari 20 tekstdan 40, 50 tekstlarga qadar bo'lishi mumkin. Zamonaviy ip yigirish uskunolari bilan jihozlangan.

Yigirilgan ip namunalari Kanteks invest korxonasidan olindi va Berdaq nomidagi Qoraqalpoqston Respublikasi Davlat Universiteti "To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi" ilimiy tadqiqod laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. Matoning taranglik kuchini ip uzilish kuchi xususiyatlarini aniqlovchi GOST 3813-72 2-band "Uni Stretch" uskunasi ko'rsatkichlar sinovdan o'tkarildi. Sinov natijalari quidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ko'rsatkichlardan aniq bo'lganidek Kanteks invest korxonasida tayyorlangan yigirilgan ip mahsulotlari natijalari yaxshi. Trikataj uchun tayyorlangan 20 tekstdagi ip sinovdan muvoffiyatli o'tdi dep hisoblaymiz. Kelgusida katta korxonalar va firmalar mahsulotlarini tadqiq etish o'rganishni maqsad qildik.

Xulosa. Kelgusida, mahalliy yetishtirilgan paxtalardan va mahalliy korxonalardan sifatli yigirilgan ip mahsulotlarini tayyorlashda, texnologik jarayonlarda paxtaning tabiiy xossalari salbiy ta'sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy tajribalarda o'rganish hamda resurs tejankor sifatli paxta ipini olish texnologiyasini tavsiya etish muhim masalalardan hisoblanadi.

References:

1. Kanteks Invest xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlamoqda. Dovud Abibullaev. xxx@inbox.uz. orginfo.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2020. Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qaror No. 397. Toshkent.
3. Paxtaga dastlabki ishlov berish o'quv qo'llanma. O'MKHTM, <<Bilim>> nashryoti, 2005.-7-b. Toshkent. A. M. Salimov M. A. Axmatov. 3002000000-028_M361(04)-2005. lib.tied.uz